

## Korxonalar va tashkilotlar

(2019 yil yanvar)

2019 yilning yanvar oyida viloyatda 327 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 140 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1861 ta (19,4 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 11455 tani tashkil etgan.

### Ro'yxatdan o'tganlar

**11574**

### Faoliyat ko'rsatayotganlar

**11455**

### Yangi tashkil etilganlar

**327**

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes sub'ektlari soni 9367 ta bo'lib, yanvar oyida 302 ta yangi tashkil etildi.

Xorijiy sarmoya ishtirokidagi 120 ta korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

O'tgan yilga nisbatan 15 ta korxona va tashkilotlar kam tugatilgan



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rniда, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichmabosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar  
va tashkilotlar soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**


	Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1316	1310	24
	Sanoat	1876	1862	62
	Qurilish	1085	1082	38
	Savdo	2316	2302	108
	Tashish va saqlash	474	472	13
	Yashash va ovqatlanish bo'vicha xizmatlar	888	882	29
	Axborot va aloqa	163	162	1
	Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	230	229	2
	Boshqa turlari	3226	3154	50



**Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.**

2019 yilning 1 fevral holatiga 11574 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 20,0 % savdo, 16,2 % sanoat, 9,4 % qurilish, 11,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 27,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Navoiy shahri (3421 ta), Karmana (2007 ta), Qiziltepa (1270 ta) va Xatirchi (1155 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Uchquduq (436 ta), Kanimex (372 ta) hamda Tomdi (197 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Ro'yxatdan o'tgan korxonalarning yillar kesimida soni**





## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 11455 tani tashil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1861 ta (19,4 %) ga o'sgan.


01.02.2018 y.  
9594 ta

01.02.2019 y.  
11455 ta

O'tgan yilga nisbatan  
1861 taga oshgan


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 20,1 % savdo, 16,3 % sanoat, 9,4 % qurilish, 11,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar ulushi, %  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Navoiy shahri (3369 ta), Karmana (1996 ta), Qiziltepa (1259 ta), Xatirchi (1145 ta) va Navbahor (1011 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Uchquduq (433 ta), Konimex (367 ta) hamda Tomdi (194 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxona  
va tashkilotlar soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**



**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar  
kesimida soni, birlikda**

01.02.2017 y.

- 8888

01.02.2018 y.

- 9594

01.02.2019 y.


- 11455



## Yangi tashkil etilgan yuridik shaxlar.

2019 yil yanvar oyida 327 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 74,9 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Navoiy shahrida (79 ta) Karmana (74 ta), Zarafshon shahrida (33 ta), Qiziltepa (32 ta) Navbahor (27 ta) tumanlari hissasiga to'gri keladi. Aksincha, Kanimex (15 ta) hamda Tomdi (7 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (108 ta), sanoat (62 ta), qurilish (38 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (29 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa tashish va saqlash (13 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (2 ta), hamda axborot va aloqa (1 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

	01.02.2017 y.		01.02.2018 y.		01.02.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>126</b>	<b>100</b>	<b>187</b>	<b>100</b>	<b>327</b>	<b>100</b>
Savdo	35	27,8	23	12,3	108	33,0
Sanoat	21	16,7	39	20,9	62	19,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	21	16,7	42	22,5	24	7,3
Qurilish	12	9,5	25	13,4	38	11,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	16	12,7	22	11,8	29	8,9
Tashish va saqlash	11	8,7	7	3,7	13	4,0
Axborot va aloqa	1	0,8	4	2,1	1	0,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	0,8	4	2,1	2	0,6
Boshqa turlari	8	6,3	21	11,2	50	15,3

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar  
kesimida soni**

01.02.2017 y.

126

01.02.2018 y.

187

01.02.2019 y.


327



### ❖ Tijorat korxonalarini.

2019 yil 1 fevral holatiga 9445 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'ssatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3471 ta, oilaviy korxonalar – 757 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 4980 ta va boshqalar 237 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**



### ❖ Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.


2019 yil 1 fevral holatiga faoliyat ko'ssatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 120 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 60 taga yoki 2 martaga o'sgan. Ushbu korxanalarning asosiy qismi Rossiya

Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 75 tasi qo'shma korxonalar, 45 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'gri keladi.

**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.**




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Navoiy shahar (45 ta yoki jamidagi ulushi 37,5 %), Karmana tumani (29 ta yoki 24,2 %) va Nurota tumanlari (12 ta yoki 10,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Konimex tumani (5 ta yoki 4,2 %), Xatirchi tumani (3 ta yoki 2,5 %), Uchquduq tumani (2 ta yoki 1,7 %) va Tomdi tumanlari (1 ta yoki 0,8 %) hissalariga tog'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 71 tani (59,2 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 18 tani (15,0 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 11 tani (9,2 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa savdoda 8 tani (6,7 %), axborot va aloqada 1 tani (0,8 %), tashish va saqlashda 3 tani (2,5 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 5 tani (4,2 %) va qurilishda 3 tani (2,5 %) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'gri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa qurilishda hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'gri keladi.

#### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda**




**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.**

2019 yilning yanvar oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 8 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 2 ta, Turkiya Respublikasi – 1 ta, Koreya Respublikasi – 2 ta Qozog'iston Respublikasi 2 ta Hindiston Respublikasi – 1 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

### **Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi ulushi, %**



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (4 ta), qurilish (1 ta), qishloq,

o'rmon va baliq xo'jaligi (1 ta) va boshqa faoliyat turlari (2 ta) hissasiga to'g'ri keladi.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
soni, o'sish dinamikasi**

	2018 yil yanvar		2019 yil yanvar	
	Jami	Umumiyl soniga nisbatan %	Jami	Umumiyl soniga nisbatan %
<b>Sanoat</b>	-	-	4	50,0
<b>Savdo</b>	-	-		
<b>Qurilish</b>	-	-	1	12,5
<b>Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi</b>	-	-	1	12,5
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	-	-	-	-
<b>Axborot va aloqa</b>	-	-	-	-
<b>Tashish va saqlash</b>	-	-	-	-
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	-	-	-	-
<b>Boshqa turlari</b>	-	-	2	25,0



**⚡ Kichik korxona va mikrofirmalar soni.**

2019 yil 1 yanvar holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 9367 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 fevral holatiga qaraganda 21,8 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 2863 tasi (30,6 %) Navoiy shahri, 1742 tasi (18,6 %) Karmana, 1028 tasi (11,0 %) Qiziltepa, 841 tasi (9,0 %) hamda Xatirchi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 9104 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 2292 tasi (24,5 %) – savdo, 1835 tasi (19,6 %) - sanoat, 1079 tasi (11,5 %) - qurilish, 1268 tasi (13,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 881 tasi (9,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 459 tasi (4,9 %) - tashish va saqlash, 151 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasi, 170 tasi (1,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 1232 tasi (13,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2019 yil yanvar oyida 302 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 74,6 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Navoiy (74 ta) va Karmana (67 ta), Zarafshon (29) shaharlari, Qiziltepa (29 ta) tumanlari hissasiga to'gri keladi. Eng kam Uchquduq (19 ta), Tomdi (7 ta) hamda Konimex (12 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (108 ta), sanoatda (61 ta), qurilishda (37 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi (29 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (23 ta) sog'lilikni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (2 ta), axborot va aloqada (1 ta) hamda tashish va saqlashda (13 ta) tashkil etilgan.

### Oilaviy korxonalar soni




Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 fevral holatiga 760 tani tashkil etib, ulardan 757 tasi yoki 99,6 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 44,1 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 21,8 % yoki 165 tasi sanoat, 22,3 % yoki 169 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,7 % yoki 138 tasi savdo, 25,1 % yoki 190 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,1 % yoki 8 tasi qurilish, 1,1 % yoki 8 tasi tashish va saqlash, 2,0 % yoki 15 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,3 % yoki 10 tasi axborot va aloqa hamda 7,6 % yoki 58 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

## Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

### Tugatilgan korxona va tashkilotlar


2019 yilning yanvar oyida jami 38 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan.

Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan -15 taga tugatish kamaygan.

Albatta xo'jalik yurituvchi subyektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobji o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.

Misol tariqasida 2017 yil yanvar oyida 25 ta, 2018 yil yanvar oyida 53 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, joriy yilning yanvarda ushbu ko'rsatkich 38 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 15 taga tugatish kamaygan.

**Yanvar oyida yangidan tashkil qilingan va faoliyati tugatilgan korxonalar  
va tashkilotlarning yillar kesimida dinamikasi, birlikda  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**




Agarda tugatilgan 38 ta korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 11 tasi (28,9 %) savdo , 5 tasi (13,2 %) sanoat, 5 tasi (13,2 %) qurilish, 4 tasi (10,5 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2 tasi (5,3 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 2 tasi (5,3 %) tashish va saqlashda 9 tasi (23,6 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, tugatilgan korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'lqnini saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

**Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**  
 (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.02.2018 yil		01.02.2019 yil		
	Soni (birlikda)	jamiga nisbatan, % da	Soni (birlikda)	Jamiga nisbatan, % da	Farqi, (+,-)
<b>Jami</b>	<b>53</b>	<b>100</b>	<b>38</b>	<b>100</b>	<b>-15</b>
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5	9,4	4	10,5	-1
sanoat	8	15,1	5	13,2	-3
qurilish	13	24,6	5	13,2	-8
savdo	14	26,4	11	29,0	-3
tashish va saqlash	2	3,8	2	5,2	0
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5	9,4	2	5,2	-3
axborot va aloqa	1	1,9			-1
sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish					
boshqa turlari	5	9,4	9	23,7	4

**Tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**



2019 yil yanvar oylarida 33 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan -19 taga kam kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan.

Tugatilgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi 11 tasi (33,3%) savdo, 5 tasi (15,2 %) sanoat, 5 tasi (15,2 %) qurilishda, 3 tasi (9,1 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2 tasi (6,0 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 2 tasi (6,0 %) tashish va saqlashda, 5 tasi (15,2 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan Konimex -9 ta, Qiziltepa -6 ta, Xatirchi -4 ta tumanlarida kichik korxona va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.

**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
**Tel.:71-230-84-56**